

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN
TIKUVCHILIK TEXNOLOGIYASI VA JIHOZLARI FANIDAN MALAKA
TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TIKUVCHILIK TEXNOLOGIYASI VA JIHOZLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Tikuvchilik texnologiyasi va jihozlari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me‘yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Gazlamashunoslik

1. Tolalarning olinishi va tuzilishi
2. Tikuvchilik materiallarining tuzilishi
3. Boshqa kiyimlik materiallar

Tikuv va tikuv-trikotaj buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi

4. Kiyim haqida umumiy ma‘lumot, tikuv korxonasida bajariladigan ishlar
5. Tikuv buyumlarini biriktirish usullari

Tikuvchilik asoslari

6. Kiyim detallariga ishlov berish
7. Tikuv va tikuv-trikotaj buyumlarini tikish, asosiy atamalar

Bolalar kiyimini tikish texnologiyasi

8. Bolalar kiyimini tikish texnologiyasi asoslari
9. Mashinada bajariladigan ishlar
10. Kashta tikish texnologiyasi
11. Yangi turdagi matolarga ishlov berish xususiyatlari;
12. Kiyimdagi nuqsonlarni aniqlash va bartaraf qilish

Ayollar kiyimini tikish texnologiyasi

13. Ayollar ust kiyimlarini tikish texnologiyasi asoslari

Tikuv-trikotaj korxonada jihozlari

14. Tikuv mashinalarining klassifikatsiyasi, moki baxya tikuv mashinalari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Tolalarning olinishi va tuzilishi	Tolalarning tasnifi, tolalarning kimyoviy tarkibi, yorug'lik mikroskopi, tabiiy va kimyoviy tolalarning olinishi va tuzilishi va xossalari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	2
2	Tikuvchilik materiallarining tuzilishi	Tikuvchilik gazlamalarining hamda trikotaj matolarining tuzilishi, o'rilishi va tarkibi, noto'qima matolarning ishlab chiqarish usullari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	1
3	Boshqa kiyimlik materiallar	Asarlik materiallar, qat sifatida ishlatiluvchi materiallar, kiyimlarning issiqligini saqlaydigan materiallar, qo'shqavat (biriktirilgan) materiallar, plyonka materiallar, kiyim qismlarini biriktiruvchi materiallar, bezatuvchi materiallar bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	1
4	Kiyim haqida umumiy ma'lumot, tikuv korxonasida bajariladigan ishlar	Kiyim funksiyasi, tikuv mahsulotlari uchun texnik me'yoriy hujjatlar, buyumlarni ishlab chiqarishga texnik tayyorlash texnologik jarayoni, gazlamalarni bichishga tayyorlash va bichish texnologik jarayoni bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	10
5	Tikuv buyumlarini biriktirish usullari	Kiyim detallarini ip bilan biriktirish, qo'lda va mashinada bajariladigan ishlar haqida ma'lumot, tikuv buyum detallarini yelimlab, payvandlab biriktirish, tikub buyum detallariga namlab-isitib ishlov berish, kiyim bichiq detallarini bichishga tayyorlash, bichiq detallarning nomi, bichiq detallarning qirqim nomlari, detallarga qotirma yopishtirish, bezak beruvchi elementlarni tayyorlash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	7

6	Kiyim detallariga ishlov berish	Bezak beruvchi elementlarni tayyorlash, tikuv buyumalari detallariga dastlabki ishlov berish, taqilmalarga ishlov berish, cho‘ntak turlari va ularga ishlov berish, qirqma cho‘ntaklar, chokdagi cho‘ntaklar, qoplama cho‘ntaklar tikish, yoqa tikish va yoqa o‘miziga o‘tkazish, yeng tikish va yeng o‘miziga o‘tkazish, yeng uchlariga ishlov berish usullari, ust kiyimlarda yengga ishlov berish xususiyatlari, yengsiz ko‘ylaklarning yeng o‘miziga ishlov berish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim	1
7	Tikuv va tikuv-trikotaj buyumlarini tikish, asosiy atamalar	Trikotaj polotnosi haqida ma’lumot, trikotaj buyum detallarini birlashtirish usullari, tikuv-trikotaj buyumlari uzellariga ishlov berish, asosiy detallarga dastlabki ishlov berish, mayda detallarga ishlov berish, cho‘ntaklarga, bortga, taqilmalarga, yenglarga ishlov berish va o‘mizga o‘tqazish, buyum etak qirqimiga ishlov berish hamda asosiy tushuncha va atamalar bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim	1
8	Bolalar kiyimini tikish texnologiyasi asoslari	Bolalar kiyimlarini tikishga qo‘yiladigan talablar, qo‘l ishlarini bajarishda qo‘llaniladigan asbob-uskunalar va moslamalar, qo‘lda bajariladigan ishlarining texnik shartlari, qaviq va qaviqqatorlar, qo‘lda bajariladigan ishlar atamalari bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim	2
9	Mashinada bajariladigan ishlar	Baxya va baxyaqatorlar, kichik mexanizatsiya vositalari, mashina chok turlari, mashinada bajariladigan ishlar atamalari va ularga qo‘yilgan texnik shartlar, mashinaga ip taqish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim	1
10	Kashta tikish texnologiyasi	Kashta tikishga tayyorgarlik, kashta choklarining turlari va ularni tikish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim	2
11	Yangi turdagi matolarga ishlov berish xususiyatlari	Yangi turdagi matolardan tikiladigan bolalar kiyimi qirqimlariga ishlov berish usullarini takomillashtirish, asosiy detallarga dastlabki ishlov berish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim	3

12	Kiyimdagi nuqsonlarni aniqlash va bartaraf qilish	Kiyimdagi nuqson turlari, texnologik nuqsonlarni bartaraf etish, tayyor kiyimdagi nuqsonlarni belgilash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim	2
13	Ayollar ust kiyimlarini tikish texnologiyasi asoslari	Kiyim mayda detallarini tikish, detallarga dastlabki ishlov berish, ust kiyimda cho'ntak turlari va ularga ishlov berish, qopqoqli, kantli, ramkali, listochkali qirqma cho'ntaklarga ishlov berish, chokdagi va qoplama cho'ntaklarni tikish, bort tikish, old bo'lakka ishlov berish, adipga ishlov berish va adipni old bo'lakka biriktirish, yoqa turlari, yoqa tikish va yoqani o'mizga o'tkazish, yeng tikish va yengni o'mizga o'tkazish, astarga ishlov berish va avraga ulash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	6
14	Tikuv mashinalarining klassifikatsiyasi, moki baxya tikuv mashinalari	Moki baxyaqator xususiyatlari, moki baxyaqator hosil bo'lish prinsiplari, mokili tikuv mashinalarining asosiy ishchi organlari, igna, moki qurilmasi, ip tortgich va igna ipi tarangligini sozlash qurilmasi, tishli reyka va tepki, moki baxya tikuv mashinalarida moki baxyaning hosil bo'lish jarayonlari va uning bosqichlari bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	1

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test

2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'ri-rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. S. Sh. Tashpulatov, M.K.Rasulova "Ayollar kiyimini tikish texnologiyasi" Toshkent "Fidokor Yosh avlod" 2021.
2. R.M.Ismoilova, M.K.Rasulova, B.Sharipov "Tikuvchilik asoslari" Toshkent "Turon nashriyoti" 2021
3. Z.Tojiboyev, S.Toshpo'latov, M.Muqimov "Tikuv-trikotaj korxonalar jihozlari" Toshkent "Iqtisod-moliya"-2017
4. T.A.Ochilov, N.G.Abbasova, F.J.Abdullina, Q.I.Abdulniyozov "Gazlamashunoslik" Toshkent, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti-2014
5. M.K.Rasulova "Tikuv va tikuv trikotaj buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi" Toshkent, "NOSHIR" 2017
6. Sh.Madjidova "Bolalar kiyimini tikish texnologiyasi Toshkent "Fan" nashriyoti 2021
7. M.Abdullayeva "Bolalar kiyimini tikish texnologiyasi Toshkent "Vorisi" nashriyoti 2006

****Eslatma:** test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*